



TEXNOLOGIYA FANINING UMUMTA'LIM FANLARI BILAN
O'ZARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISH.

Avazbayev Atajan Ismailovich

*Nizomiy nomidagi O'zMPU professori v.b.,
p.f.n.*

Annotatsiya: Maqolada Texnologiya fanining hozirgi kundagi, zamonaviy muammolari sifatida Texnologik ta'lim fanlarini umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi asosida o'qitish va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha ayrim fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, innovatsion mahsulot, ijodkorlik yondashuvi, fikrlash modellari, yuqori kasbiy kompetentlik, interaktiv va ijodiy uslublar, motivatsion, kognitiv, reflektiv, integratsiyalash daraja va amalga oshirish shakllari.

Авазбаев Атажан Исмаилович

П.ф.н., и/о профессор, УзНПУ им Низами

ОБУЧЕНИЕ НА ОСНОВЕ ВЗАИМОИНТЕГРАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ С
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПРЕДМЕТАМИ.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые идеи по эффективной организации обучения и ориентации учащихся на профессии на основе интеграции предметов технологического образования с общеобразовательными предметами, как актуальные, современные проблемы технологической науки.

Ключевые слова: Интеграция, инновационный продукт, креативный подход, модели мышления, высокая профессиональная компетентность, интерактивные и креативные методы, мотивационный, когнитивный, рефлексивный, уровень интеграции и формы реализации.

Avazbaev Atajan Ismailovich

PhD, Acting Professor, N E U of Uzbekistan nemid Nizami



TRAINING BASED ON THE MUTUAL INTEGRATION OF TECHNOLOGY WITH GENERAL EDUCATION SUBJECTS.

Abstract: *The article examines some ideas for the effective organization of training and orientation of students to professions based on the integration of technological education subjects with general education subjects, as current, modern problems of technological science.*

Keywords: *Integration, innovative product, creative approach, thinking models, high professional competence, interactive and creative methods, motivational, cognitive, operational, reflexive, level of integration and forms of implementation.*

Keyingi yillarda kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimini isloh qilish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Buning natijasi esa *Texnologiya va kasbiy ta'lim fanlariining umumta'lim fanlari* bilan o'zaro aloqasi, integratsiyasi qay darajadaligiga bog'liq. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni alohida o'rin tutadi.

Texnologiya fanining bugungi kundagi, zamonaviy muammolaridan biri uning *umumta'lim fanlari, jumladan* aniq va tabiiy fanlar bilan integratsiyasi va shu integratsiya asosida o'quvchilarni *kasb-hunarga yo'naltirish* masalasi xisoblanadi.

Texnologiya fanining umumta'lim fanlari bilan to'liq va chuqur o'zaro integratsiyasi samarali yo'lga qo'yilmagan. Buni amalga oshirish echimlarini quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali amalga oshirish mumkun:

- *Texnologik ta'lim fanlarining umumta'lim fanlarini bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish tadbirlarini aniqlash va amalga oshirish;*



- *Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda fanlararo bog'liqlikni tashkil etuvchi o'quv modullarini belgilash va ularni sifatli tashkil etish, amalga oshirish va o'qiishni tashkil etish;*

- *Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda variativ o'quv modullari amalga oshiriladigan zamonaviy ishlab chiqarishning yo'nalishlarini aniqlash va ular bo'yicha bo'yicha o'qiish hamda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etish.*

Ular quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1. Texnologik ta'lim fanlarining umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshiriladi:

- *jadal rivojlanayotgan raqamli asrda innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun yangi bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llashning tobora ortib borayotgan ahamiyati milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va milliy xavfsizlik strategiyalarining samaradorligini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda integratsiyalash tizimini ishlab chiqish va yo'nalishlarini belgilash;*

- *globallashuv davrida mehnat bozori talablariga mos, nostandart masalalarni ijodkorlik yondashuvi asosida yecha oladigan o'quvchilarni tarbiyalash masalasini amalga oshirish uchun muayyan fikrlash modellari zarur, o'quvchi-yoshlarda bun-day fikrlash modellarini shakllantirishda integratsiyalash funksiyalarini belgilash;*

- *yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'limda innovatsiyalar, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o'quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalash tendensiyalarini aniqlash;*

- *texnologik ta'limni rivojlantirish doirasida zamonaviy texnologik jihozlar, kasblar dunyosi bilan tanishish, o'quvchi-yoshlarni turli ijtimoiy sohalarda mustaqil ravishda mehnat qiladigan yo'nalishini topish, ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishda integratsiyalash darajalari va amalga oshirish shakllarini ishlab chiqish.*



2. *Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda fanlararo bog'liqlikni tashkil etuvchi o'quv modullari quyidagicha belgilanadi:*

- *ilmiy-texnik ma'lumotlar va texnologik hujjatlar to'plami;*
- *texnologik jarayonlar va tizimlar;*
- *materiallar va ularning tarkibini o'rganish;*
- *modellashtirish va konstruktorlik loyihalash ishlari; konstruktorlik va ixtiro masalalarini yechish;*

- *yuqori texnologiyalar;*
- *texnologiyalarni boshqarish;*
- *loyiha ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish.*

3. *Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda variativ o'quv modullari zamonaviy ishlab chiqarishning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:*

- *injenerlik-texnologik;*
- *agrotexnologik;*
- *servis-texnologik (xizmat ko'rsatish sohasi);*
- *robototexnika, zamonaviy energetika, transport tizimlari va texnika.*

O'quvchilar Texnologik ijodkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Texnologik ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini harakatlantiruvchi kuch, O'zbekiston iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi globallashtirish, ijtimoiy madaniy o'zgarishlar transformatsiyasi kadrlar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, texnologik ta'lim maqomi va nufuzini oshirish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish, "Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash", tuman, viloyat, respublika miqyosida intellektual yetuk o'quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tizim:

- *ta'lim muassasasi axborot muhitida o'quvchi-yoshlar tomonidan bajarilgan loyihalar, ularning natijalarini qayd etish uchun sharoit yaratish;*



- ochiq taqdimotlar (jumladan, ixtisoslashgan portal va ijtimoiy tarmoqlar), musobaqalar, konkurslar orqali o'quvchi-yoshlarga innovatsion loyihalarni taqdim etish;

- texnologik ta'limni ommalashtirish uchun mashhur ixtirochilar, olimlar, biznesmenlar ishtirokida muntazam tanlovlar o'tkazish;

- ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha respublika olimpiadalarini tashkil etish;

- musobaqalarni mehnat taqsimoti asoslari, jamoa bo'lib ishlash tamoyillari, shaxslararo munosabatlar va ish etikasi asoslarini o'zlashtirishga imkon beruvchi shakllarda tashkil etish va shu kabilar orqali amalga oshiriladi..

Texnologiya fanining umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasini samarali amalga oshirishga va shu orqali uni o'qitishni takomillastirishga yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni uzluksiz, tizimli va to'liq amalga oshirish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Texnologiya fani bo'yicha "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash konsepsiya". O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. 2021-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

3. Avazbayev.A.I, Kurbanov. P.z. O'quvchilarning kasb-hunarni to'g'ri tan-lash va egallash kompetentsiyalarini rivojlantirish. Belarus-O'zbek Ilmiy-metodik jurnal 2023-yil 5-son 7-12 betlar.

4. Avazbayev.A.I. Raqamli texnologiyalar sharoitida **texnologiya fanini o'qitishning muammo va yechimlari**. Belarus-O'zbek Ilmiy-metodik jurnal 2023-yil 5-son 12-17 betlar.

5. Avazbayev.A.I. Kredit-modul tizimida o'quv reja, undagi majburiy va tanlov fanlarni shakllantirish muammolari. "World scientific research journal."



International interdisciplinary research journal. Volume-27. Issue-1. May -2024.
(www.wsrjournal.com.) 116-120 pp.